

**UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA MOTIVATSION TAYYORLIK**

*Samarqand viloyati pedagoglarni  
yangi metodikalatga o'rgatish  
milliy markazi "Pedagogika va psixologiya  
ta'lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti  
Oqilova Kamola Sadullayevna*

Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori ta'lim tashkilotlarida yaratilishini Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanishi"ga urg'u berish orqali ta'kidladi. Shunga muvofiq bugungi kunga kelib ta'lim maqsadlari tadrijiy rivojlanib, taraqqiyot tomon bormoqda. Bunday rivojlanishning jadal borishida esa o'qituvchi bosh omil hisoblanadi.

O'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, mazkur jarayonga ularning qiziqishlarini oshirish hamda ko'zlangan natijalarga erishishda dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi, innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, liderlik, ijtimoiy mo'ljallanganlik, ta'limni metodik jihatdan tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarning subyekt tomonidan qabul qilishlik, moslashuvchanlik, mas'uliyat, uzluksiz va mustaqil bilim olishini ifodalovchi motivatsion tayyorlik kompetentligiga ega bo'lish majburiyatini belgilaydi.

Bu o'z navbatida pedagog xodimning yangicha yondashuvlar, o'zgarishlar, tamoyillar, chaqiriqlarga samarali munosabat bildirishi hamda mustaqil holda ongli va ijodiy o'zgartirishlar kirita olish kompetentligini ham zaruriy ko'nikma tariqasida belgilash ehtiyojini vujudga keltiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qituvchilar uchun "ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik-psixologiyani tushunishni, ta'lim berishga kompetentlilik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni egallash" va "xalq ta'limini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib ilg'or yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish" [1] dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanishi bejiz emas.

O'z-o'zini rivojlantirishga kompetentlilik o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan munosabatini ifodalaydi va unga faoliyatining konseptual loyihasi timsolida qaralishi pedagog xodimning doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar hamda pedagogik vaziyatlarning maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan bo'lishini talab qiladi. Demak, ayni shu jarayon

o'qituvchidan o'z faoliyatiga munosabatini o'zgartirishni, zaruriyat tug'ilganda, qayta qurishni talab etadi. Bu esa tizimning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan izlanishlar, sohaga daxldor adabiyotlar tahlili xalq ta'limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan o'qituvchining amaliy faoliyati hamda o'z-o'zini rivojlantirishga motivatsion tayyorlik kompetentligi o'rtasida quyidagicha ziddiyatlar mavjudligini ko'rsatdi:

- uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish muammosiga pedagogik-psixologik jihatdan tegishli darajada e'tibor qaratilmagan;

- jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq maktab ta'limida o'qituvchilarning yangiliklarga intiluvchanlik, o'zgarishlarga qayishuvchanlik, ayni ta'limiy jarayon va bugungi kun o'quvchisiga moslashuvchanligi, ilmiy-metodik salohiyatini rivojlantirish bo'yicha pedagogik talablarning ortishi taqozosi yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan;

- o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari aniqlanmagan;

- o'tkazilgan davra suhbatlari va tajriba-sinov ishlariga ko'ra, o'qituvchilar uzluksiz kasbiy rivojlanishga oid malaka oshirishning turli shakllari, jumladan, tashkil etiluvchi qisqa muddatli kurslar yuzasidan yetarli ma'lumotga ega emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, UKRga kompetentli yondashuvni amalga oshirish, o'qituvchining o'z kasbi doirasidagi talablarga muvofiq kompetentlik darajasini ko'tarish, jumladan, ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganish talab etiladi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish biroz murakkab, chunki kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, ularda yetarli darajada talqin etilgan, o'rganilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Pedagogik tushunchalar tarkibiga esa nisbatan keyingi yillarda kirib kelgan bo'lib, didaktik, metodik, xususan, ta'limda o'qitish tizimiga to'laqonli singdirilmagan va bu holat pedagogik tadqiqotlar davomida ularning ko'plab ta'riflari hamda talqinlari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, tadqiqotimiz davomida kompetentli yondashuv, kompetentlilik tushunchalariga to'xtalib o'tish motivatsion tayyorlik kompetentligining mohiyatini yoritishda ma'lum ma'noda xizmat qiladi. O'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishiga kompetentli yondashuv kasbiy malaka talablarida ko'zda tutilgan shaxsiy samaradorlik, ta'lim mazmunini boyitish, ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Bunda motivatsion tayyorlik, o'qituvchilarning qiziqishlarini orttirish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarini yangi vaziyatlarda qo'llash,

kuzatishlar yuzasidan xulosalar chiqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga turtki beradigan, kasbiy ehtiyojlarni qondiradigan o‘quv dasturlarini taklif qilish malaka oshirishning ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Kompetentli yondashuvga asoslangan ta’lim – o‘qituvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amalda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan birgalikda, ularda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb tanlash va unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabi sog‘lom raqobat ko‘nikmalarini shakllantiradi, nafaqat o‘quvchilarga ta’lim berishda, balki o‘z-o‘zini o‘qitib borishda ham uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilishni ta’minlaydi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, “kompetensiya” shaxs mukammal biladigan predmet – soha bo‘lib, uning faoliyat ko‘rsatishi uchun tayyor ekanligi o‘lchovi hisoblanadi. “Kompetentlik” tushunchasini esa undan farqli o‘laroq, shaxsning yo‘nalitirilgan tasnifi, bitiruvchining ma’lum sohada faoliyat ko‘rsata olish ko‘nikmasi ekanligini ta’kidlaydilar.

O.Qo‘ysinov kompetentlikni bu faqatgina o‘zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo‘libgina qolmay, balki ulardan kerak vaqtda hamda o‘zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida foydalana olish demakdir, deya ta’riflaydi. Tadqiqotchi kompetentlikning murakkab, integral xarakterini tavsiflar ekan, xorijdagi boshqaruv modellarida uning uch darajasi yoki turi ajratib ko‘rsatilganligini ta’kidlaydi [14],[129; 36-b.]:

1) integrativ kompetentlik – bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga va tashqi muhitning tez o‘zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana olishga qodirlik;

2) ijtimoiy-psixologik kompetentlik – zehn-idrok, odamlarning xulq-atvorini tushunish bo‘yicha bilimlar va ko‘nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqot madaniyatining yuqori darajadali;

3) boshqaruv faoliyatining muayyan sohalari bo‘yicha kompetentlik – qarorlar qabul qilish, axborot yig‘ish, odamlar bilan ishlash metodlari va hokazolar.

Sh.S.Sharipovning fikricha, kompetentlik – shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarini uning ijtimoiy professional mavqeyi va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga yetarliligi hamda haqiqiy moslik darajasi. Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi [9].

Boshqa bir holatda kompetentlikni xushaxloqlik, pedagogik tashkilotchilik, boshqaruvchilik, kommunikativlik singari kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar bilan bir qatorga qo‘yadilar. Kompetentlikning o‘zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi

va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga qodirlik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadigan kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga qodirlik bilan belgilanadi .

Pedagog olimlarning ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan hamda o'rganib chiqilgan.

Demak, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin bo'lgan faoliyatga doir kategoriya bo'lib, subyektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyatida yuzaga chiqadi. Umuman, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan, kasb sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofdagi obyektlar va subyektlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha muayyan malakalar hamda kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasidir. Kompetentlikning shakllanganligi borasida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir xizmatchining kompetentligi darajasi uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

### Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2019. 06/19/5712/3034-son.
2. Ahmedov M.U. Umumta'lim maktab direktorlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 155 b.
3. Boymurodova G.T. Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmi: ped. fan. dok... diss. (DSc). – Toshkent, 2020. – 286 b.
4. Vaxobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish: ped. fan. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2016 y. – 92 b.
5. Vixanskiy O.S. Naumov A.I. Menedjment: uchebnik -4-ye izd., pererab. I dop. – M.: Ekonomika, 2003. – 528 s.
6. Vozgova Z.V. Metodologicheskij regulyativ razvitiya sistema pereglybnogo povыsheniya kvalifikasii nauchno-pedagogicheskix rabotnikov. – M.: "APK i PRO", 2010. – 239 s.

7. Zeyer E.F., Zavodchikov D. Identifikatsiya universalnykh kompetensiy vyipusknikov rabotodatelem // Vysshneye obrazovaniye v Rossii/ - 2007. -№2.
8. Krichevskiy V.Yu. Finansovaya samostoyatel'nost v sfere obrazovaniya // Pervyye shagi: posobiye dlya rukovoditeley obrazovatel'nykh uchrejdeniy. – M.: Prosvetsheniye, 2007. – 176 s.
9. Sharipov Sh.S. Kasb ta'limi o'qituvchisi kompetentligini ta'minlashda ilmiy-metodologik yondashuvlar. /<http://dr-sharipov.com/2014/03/02>.
10. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
11. Pedagogika / V.A.Slasyonin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanov; Pod red. V.A.Slasyonina. – M.: «Akademiya», 2002. – 576 s.
12. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 220 b.
13. Shodmonova M.B. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 182 b.
14. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: diss. ... ped. fan. dok. (DSc). – Toshkent, 2019. 237 b.
15. Elektron resurs: <http://www.yspu.ru/projects/infomet/preemstvennost/Ssilki.htm>.